Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

ularning tadbirkor shakllantirayotgan ruhiy muhitga kira olishlari mumkinligini aniqlash muammolaridir.

Xulosa shundan iboratki, agar ijtimoiy ishlab chiqarish nuqtai nazaridan tadbirkor faol sub’ekt rolida bo‘lsa, unda tadbirkorlik jarayonining o‘zi, uning samaradordigi va mazmuni nuqtai nazaridan iste’molchi faol rol o‘ynaydi va tadbirkor bu omilni inkor eta olmaydi.

Tadbirkorning shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, imkoniyatlari va ishga doir sifatlari tadbirkorlikning harakatlantiruvchi kuchi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi— O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar
strategiyasi to‘g‘risidagi PF-4947-sonli Farmoni. www.lex.uz.
2. Bryu S.L., Makkonnell K.R., Ekonomiks: kratkiy kurs. Perv. S 1- ang. izd. M.: INFRA - M 2015. 462 str.
3. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik, Toshkent.: ―Barkamol fayz media‖, 2017, 784 b.
4. Jo‘raev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi (ko‘rgazmali va tarqatma materiallar). 1-tom, 2011, 332 bet. Jo‘raev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi (ko‘rgazmali va tarqatma materiallar). 2-tom, 2013, 380 bet.
5. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti

ATROF MUHIT IFLOSLANISHI VA UNING SABABLARI. MAMLAKATIMIZDAGI ATROF MUHIT IFLOSLANISHI STATISTIK KO‘RSATKICHLARDA

So‘fiyeva Xusniya Soxibjonovna
TDIU Andijon fakulteti o‘qituvchisi
Kamoliddinov Ozodbek Ziyoyiddinovich
TDIU Andijon fakulteti
AI-70/23 guruh 2-bosqich talabasi
Tel: +998-(93)-001-30-41
E-mail; kamoliddinovozodbek1711@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada men hozirgi kundagi asosiy muammolardan biri bo‘lib kelayotgan atrof-muhit masalasini yoritib berishni o‘z oldimga maqsad qilib qo‘ygan holda maqola mavzuyimni “atrof-muhit ifloslanishi va uning sabablari.

Published: 24.05.2025
Cite this article: So‘fiyeva Xusniya Soxibjonovna, Kamoliddinov Ozodbek Ziyoyiddinovich (2025). Atrof muhit ifloslanishi va uning sabablari. Mamlakatimizdagi atrof muhit ifloslanishi statistik ko‘rsatkichlarda. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/361
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Mamlakatimizdagi atrof muhit ifloslanishi statistik ko‘rsatkichlarda” deya nomladim. Buning asosiy maqsadi yuqorida ta’kidlaganimdek mamlakatimiz atrof muhiti shu qadar ifloslanib ketyaptiki bunga jim qarab turishimiz kerak emasligini bilishimiz darkor. Men ushbu maqolamda atrof-muhit ifloslanishi va uning asosiy sabablarini va albatta yurtimiz atrof-muhit ifloslanishini statistik tahlillar va jadvallarda ko‘rsatib o‘tishga harakat qilganman.

Kalit so‘zlar: *Atrof tabiiy muhitni ifloslanishi, havoning ifloslanshi, suv ifloslanishi, tuproq ifloslanishi, shovqin ifloslanishi, antropogen ifloslanish, tabiiy ifloslanish*

Загрязнение окружающей среды и его причины. Загрязнение окружающей среды в нашей стране по статистическим показателям

Аннотация: В данной статье я поставил перед собой цель осветить проблему экологии, которая является одной из главных проблем современности, и выбрал тему своей статьи «Загрязнение окружающей среды и его причины». «Загрязнение окружающей среды в нашей стране отражено в статистике», — назвал я это. Главная цель этого, как я уже упоминал выше, — донести до нас, что окружающая среда нашей страны становится настолько загрязненной, что мы не должны оставаться безучастными. В этой статье я попытался представить загрязнение окружающей среды и его основные причины, и, конечно же, загрязнение окружающей среды нашей страны, посредством статистического анализа и таблиц.

Ключевые слова: *загрязнение окружающей среды, загрязнение воздуха, загрязнение воды, загрязнение почвы, шумовое загрязнение, антропогенное загрязнение, природное загрязнение.*

Environmental pollution and its causes. Environmental pollution in our country in statistical indicators

Annotation: in this article, I set myself the goal of highlighting one of the main problems of today, the environmental issue, and I named the topic of my article “Environmental pollution and its causes. Environmental pollution in our country in statistical indicators”. The main purpose of this is, as I noted above, that our country's environment is becoming so polluted that we should not remain silent about it. In this article, I tried to show environmental pollution and its main causes, and of course, the environmental pollution of our country in statistical analyses and tables.

Keywords: *Environmental pollution, air pollution, water pollution, soil pollution, noise pollution, anthropogenic pollution, natural pollution*

Kirish

Hozirgi kundagi eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelayotgan muammo bu atrof muhitning ifloslanishidir. Buda tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan sanoat, urbanizatsiya, transport vositalari, issiqxonalar va texnologik yutuqlar tabiatga jiddiy zarar yetkazib kelmoqda. Bu muammo barcha mamlakatlar singari bizning yurtimiz ham bundan mustasno emas. Havo, suv va tuproqning ifloslanishi nafaqat ekologik muvozanatni buzmoqda, balki inson salomatligi va kelajak avlodlar uchun ham xavf tug‘dirmoqda. Albatta buni bartaraf etish choralarini ko‘rmog‘imiz kerak. **Atrof tabiiy muhitni ifloslanishi** — ekologik holatga salbiy ta’sir qiladigan moddalarning atrof muhitda mavjudligi. Atrof tabiiy muhitni ifloslanishi tabiiy resurslarning kamayib ketishidan tashqari, ekologik tizimlarning buzilishiga va energiya almashinuvining tabiiy holatda kechishiga jiddiy ta’sir qiladi. Atrof tabiiy muhitni ifloslanishi tabiiy moddalar tuproq, suv, yer osti boyliklari, atmosfera havosi tarkibining fizik va kimyoviy o‘zgarishiga olib keladi. Agar bunday o‘zgarish inson hayotining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lsa — antropogen ifloslanish, uning ishtirokisiz bog‘liq bo‘lsa, tabiiy ifloslanish deyiladi.

Quyida atrof-muhit ifloslanishi turlarini va uning sabablarini ko‘rishimiz mumkin:

Havo ifloslanishi: Bunda zavodlar va transport vositalaridan chiqadigan tutun, karbonat angidrid, oltingugurt dioksid va boshqa gazlar atmosferani ifloslaydi. Havo ifloslanishi nafas olish yo'llari kasalliklari va iqlim o'zgarishiga olib keladi.

Suv ifloslanishi: Bunda sanoat chiqindilari, maishiy chiqindilar va qishloq xo'jaligi dori vositalari suvlarga tushib, ichimlik suvi manbalarini va suv ekotizimlarini ifloslaydi. Bu holat suv jonivorlarining hayotini xavf ostiga qo'yadi va inson salomatligiga zarar keltiradi.

Tuproq ifloslanishi: Bunda kimyoviy o'g'itlar, zararkunanda dori vositalari va sanoat chiqindilari tuproqni ifloslaydi. Bu o'simlik toplamini yo'q qilishi va oziq-ovqat zanjiriga zaharli moddalar kirishiga sabab bo'lishi mumkin. Ifloslangan tuproq qatlamida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifati buziladi va inson hayotiga zarar yetkazishi ham mumkin.

Shovqin ifloslanishi: Bunda esa yo'l harakati, qurilish ishlari va sanoat mashinalaridan keladigan ortiqcha shovqin inson salomatligiga va tinchligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shovqin ifloslanishi insonni, stress, uyqu buzilishlari va eshitish qobilyati pasayishi kabi muammolariga sabab bo‘lishi mumkin.

Yuqolida keltirilgan atrof-muhit ifloslanishini oldini olish uchun qisqacha chora-tadbirlarni ko‘rib o‘tamiz:

Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish: bunda transport vositalaridan chiqadigan zaharli gazlar va asosiy issiqxonalarni isitish maqsadida avtobomil shinalarini yoqishdab chiqadigan zaharli tutunlar inson salomatligiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatishi asosiy masala bo‘lib kelmoqda. Buni oldini olishda quyosh, shamol va gidroelektr kabi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Qayta ishlash va chiqindi boshqaruvi: bunda chiqindilarni qayta ishlash va organik chiqindilarni kompost qilish, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishning samarali usullaridan biridir. Plastik, shisha va metall kabi materiallarni qayta ishlash tabiiy resurslarni saqlashga hissa qo'shadi. Shuning uchun ko‘p ovqatlanish joylarida va kichik fastfood markazlarida ovqatlarni plastik yoki plyonka idishlarga emas balki ekologik toza va qayta ishlanadigan qog‘oz idishlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman. Bunda qog‘ozdan tayyorlangan idishlarni qayta ishlash oson va insonlarga zarar keltirmaydi. Agar bir marttalik plastik va plyonka sarafandan foydalanilsa bunda bularni qayta ishlab bo‘lmaydi agar ularni yoqib yuborsa havoga zararli gazlar va tutunlar chiqib havoni ifloslanishiga sabab bo‘ladi.


Yashil hududlarni himoya qilish va ko'paytirish: Bunda daraxtlar va o'simliklar karbonat angidridni yutib, havoga kislorod chiqaradi. Parklar va o'rmonlarni himoya qilish va yangi yashil hududlarni yaratish atrof-muhit salomatligi uchun zarurdir. Bunda albatta davlatning ham hissasi katta ro‘l o‘ynaydi nimaga deganda davlat daraxt va o‘simliklarni asrash uchun maxsas qarorlar qabul qilishi kerak. Bu nima degani? Bu yuqorida ta’kidlagandek jamoatchilik joylaridagi, ko‘chalardagi, davlat tashkilotlaridagi va hatto mahallalardagi daraxt va o‘simliklarni asrab avaylash hamda ular sonini yanada ko‘paytirish chora-tadbirlarini o‘tkazish darkor. To‘g‘ri bu borada yurtboshimiz ham ko‘plab ishlarni olib bormoqda va eng asosiysi shundaki, bu yil ham atrof-muhitni yaxshilash uchun **O‘zbekitonda 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili”** deb nomlandi. Demak bundan ko‘rinib turibdiki bu yilda biz o‘z oldimizga atrof-muhitni asrashni asosiy maqsad qilib belgilashimiz kerak.

Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar

Klassifikator	Klassifikator_ru	Klassifikator_en	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O‘zbekiston Respublikasi	Республика Узбекистан	Republic of Uzbekistan	729,0	788,2	817,6	855,2	1162,1	975,1	1008,2	853,5	883,7	952,8	924,4	908,7	873,6	763,2
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Республика Каракалпакстан	Republic of Karakalpakstan	29,2	23,5	19,5	25,8	26,7	32,8	30,6	37,7	34,0	37,2	28,9	31,4	21,1	9,8
Andijon viloyati	Андижанская область	Andijan region	8,7	13,6	12,2	14,4	6,6	18,5	36,7	15,8	15,9	14,3	11,5	4,9	17,3	10,5
Buxoro viloyati	Бухарская область	Bukhara region	75,5	71,7	61,7	50,7	51,9	55,6	58,5	63,8	74,8	69,1	37,1	44,8	35,6	30,7
Jizzax viloyati	Джизакская область	Jizzakh region	23,8	17,3	14,1	17,2	37,2	70,2	63,4	5,2	11,8	4,3	3,4	2,9	27,0	29,5
Qashqadaryo viloyati	Кашкадарьинская область	Kashkadarya region	141,2	142,5	163,0	167,0	171,8	176,3	167,9	165,7	152,2	140,4	128,1	132,2	115,7	117,7
Navoiy viloyati	Навоийская область	Navoi region	40,3	45,2	42,4	43,9	42,6	47,0	57,4	44,1	49,9	43,6	48,4	68,6	41,6	35,0
Namangan viloyati	Наманганская область	Namangan region	5,4	5,6	7,0	3,7	3,9	7,8	15,8	15,9	15,2	15,8	15,0	24,0	7,4	5,0
Samarqand viloyati	Самаркандская область	Samarkand region	51,5	51,8	52,8	49,1	51,3	54,7	51,6	37,2	52,1	44,2	52,7	39,4	38,7	39,4
Surxondaryo viloyati	Сурхандарьинская область	Surkhandarya region	3,5	3,3	4,4	3,7	5,8	3,1	3,2	3,2	5,1	6,9	6,5	7,1	7,3	7,4
Sirdaryo viloyati	Сырдарьинская область	Syrdarya region	21,0	58,7	46,9	35,4	69,3	66,1	68,9	59,6	60,5	47,8	71,8	45,7	49,1	3,1
Toshkent viloyati	Ташкентская область	Tashkent region	257,6	280,3	290,4	372,3	619,2	370,6	318,7	302,9	336,6	397,9	430,0	425,4	438,0	430,1
Farg‘ona viloyati	Ферганская область	Fergana region	43,0	42,8	73,5	40,2	38,4	38,9	103,2	60,1	53,2	49,6	50,5	46,5	49,5	26,4
Xorazm viloyati	Хорезмская область	Khorezm region	4,8	4,9	4,9	6,2	6,3	5,0	5,2	9,2	7,1	7,2	6,8	7,2	4,5	3,4
Toshkent shahri	город Ташкент	Tashkent city	23,5	27,0	24,8	25,6	31,1	28,5	27,1	33,1	15,3	74,5	33,7	28,6	20,8	15,2

Malumotlar shuni ko‘rsatadiki O‘zbekiston huhudidagi barcha viloyatlar, Toshkent shahri va Qoraqalpog‘iston respublikasining 2010-yildan to 2023-yilgacha bo‘lgan atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar hajmi ko‘rsatib o‘tilgan. Bu jadvalda shuni ko‘rishimiz mumkinki, ko‘p joylarda bu ko‘rsatkichlar ortib bormoqda lekin bazi hududlarda esa kamayish holatlari kuzatilmoqda. Biroq hozirgi paytda Toshkent havoning ifloslanish darajasi bo‘yicha 28-yanvarda dunyoning yirik shaharlari orasida 1-o‘ringa chiqdi. IQAir portali havo sifati haqida ma’lumot berdi.

Reyting real vaqt rejimida o‘zgarib turadi. Soat 13:22 holatiga ko‘ra, Toshkent havosi ifloslangan shaharlar orasida yetakchilik qilmoqda. Poytaxt havosida mayda PM2,5 dispers zarralarining konsentratsiyasi 193,5 mkg/m3 ni tashkil etgan. Hozirda poytaxt havosi sifati “o‘ta zararli” tasnifda turibdi.



Buni yaxshilash albatta siz va bizga bog‘liq shuning uchun atrof-muhit ifloslanishiga befarq bo‘lmang!

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki atrof muhitning ifloslanishi nafaqat tabiat, balki insoniyat kelajagi uchun ham katta xavf tug‘dirmoqda. Mamlakatimizda ushbu muammo jiddiy masala sifatida ko‘tarilib, uni bartaraf etish uchun qator davlat dasturlari va qonunchilik choralari amalga oshirilib kelmoqda. Ammo, yuqorida ta’kidlaganimizdek ekologik muammolarni faqat davlat darajasida hal qilishning imkoni yo‘q. Bunda har bir fuqaroning ekologik madaniyati va mas’uliyatini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, resurslarni tejamkorlik bilan ishlatish kabi ishlarni qilishimiz darkordir. Atrof muhitni asrab-avaylashimiz – kelajak avlodga sog‘lom va yashashga qulay dunyo qoldirishning asosiy kafolati hisoblanadi. Shu sababli, bu borada barchamiz birlashib qo‘lni-qo‘lga berib bu borada hammamiz qo‘ldan kelganicha hissa qo‘shishimiz zarur. Shunda biz boshqa davlatlarga kim ekanligimizni va kimning avlodlari ekanligimizni ko‘rsatib qo‘yamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. ***Яшил иқтисодиёт: Дарслик.*** */А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажибакиев ва бошқалар. –Тошкент.: “Universitet”, 2020. -262 б.*

2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil_iqtisodiyot

3. https://daryo.uz/2025/01/28/toshkent-havosi-iflos-shaharlar-reytingida-1-oringa-chiqdi
4. https://www.iqair.com/ru/world-air-quality-ranking
5. https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/20/yil/
6. https://www.nano-lab.com.tr/uz/blog/detail/atrofiya-muhitning-ifloslanishi-1246
7. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_1569.pdf

“O‘ZBEKISTONDA BANKLAR FAOLIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”

Abdaminova Pokizaxon Tavakkal qizi
Toshkent Davlat iqtisodiyot Universiteti
III-bosqich MMT 60/22-guruh talabasi
Ilmiy rahbar:Umarova Gulzodaxon Qodirbekovna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Unvirsiteti
“Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi o’qituvchisi.

Annotatsiya*: Ushbu maqolada O‘zbekistonda banklarning faoliyatini yanada rivojlantirish istiqbollari va tijorat banklarining istiqbollari O‘zbekiston Respublikasiga qanchalik muhim hamda davlatimiz rivojlanishiga qanchali hissa qo’shishi yortib o’tilgan.*
Kalit so‘zlar*: Tijorat banklari, markaziy bank, blokcheyn, IT, AI(Artifical intellegent), mobil ilova, moliyaviy nazorat.*

Bank deb, pul mablag‘larini yig‘uvchi, saqlab beruvchi, kredit- hisob va boshqa har xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasaga aytiladi. Banklar paydo bo'lishining asosi tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Bank italyancha “banca” so‘zidan olingan bo‘lib, “stol”, aniqrog‘i, “pulli stol” ma’nosini anglatadi. O‘rta asrlarda italiyalik puldorlar hamyonlaridagi, idishlardagi monetalarni stol ustiga qo‘yib hisob-kitob qilishgan.

Bank tizimi mustaqillik erishganimizdan so‘ng mamlakatimizda ham rivojlanib kelmoqda. Mamlakatimizda bank tizimi 2 ga bo‘linadi. Markaziy bank va tijorat banklari. Hozirgi kunda mamlakatimizda markaziy bank va 36 ta tijorat banklari o‘z faoliyatini olib boradi.